

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA TA’LIM GUMANIZATSIYASI

Mamurov Akbar Narzulla o‘g‘li

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi
Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi o‘qituvchisi
akbar4440@gmail.com

Annotatsiya: Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim gumanizatsiya jarayoni jamiyatning rivojlanishi va kelajagi uchun zaruriy omil hisoblanadi. Ta’lim nafaqat bilim berish, balki insonni tarbiyalash, uning shaxsiyati va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada ta’lim gumanizatsiyasining ijtimoiy-falsafiy aspektlari, uning ahamiyati va O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yangiliklar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, gumanizm, gumanizatsiya, aspekt, inson qadriyatlari, axloqiy qadriyatlar, ta’lim gumanizatsiyasi va ijtimoiy tenglik, gumanizatsiyaning ijtimoiy, falsafiy aspektlari.

Kirish. Ta’lim gumanizatsiyasi – bu ta’lim tizimining insoniy qadriyatlarini, madaniyatni va ijtimoiy mas’uliyatni yuksaltirishga qaratilgan jarayon. Bu jarayon ta’limni shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi tizim sifatida ko‘rishga yordam beradi¹. Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim gumanizatsiyasi, ya’ni ta’lim jarayonini insoniy qadriyatlar, e’htiyojlar va qobiliyatlar asosida qurish, bir qator muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda jahonning ilg‘or mamlakatlarida ta’lim tizimini isloh etishga katta ahamiyat berilmoqda.

Buning pirovardida inson paydo bo‘lishidan to umrining oxirigacha davom etadigan tarbiya va o‘qitishni yaxlit ajralmas tizim deb qarashga va uni amaliyotga tatbiq etishga undalmoqda. Bunda yosh ota-onalar, ijtimoiy muhit va bolaning olamini o‘zaro bog‘langan va harakatdagi tizimini yaratish e’tiborga molikdir. Bu tizimni o‘rganadigan fanlar yangi yondashuvlar, tamoyillar, metod va qarashlar bilan yanada boyib bormoqda. Bunday zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar, ta’lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, fan, texnika va texnologiyalarning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta’lim dasturlarini o‘zgartirib, yangilab borishni ko‘zda tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Ta’lim gumanizatsiyasiga oid adabiyotlar keng ko‘lamli va muhim ma’lumotlar taqdim etadi. Ular nafaqat nazariy, balki amaliy jihatlarni ham qamrab oladi, bu esa o‘qituvchilar va ta’lim boshqaruvchilarda foydali manba bo‘lib xizmat qiladigan adabiyotlardan foydalanildi. Ta’lim jarayonida insoniy qadriyatlarni inobatga olish, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llash – bularning barchasi ta’lim gumanizatsiyasining asosiy tamoyillariga xizmat qiladi.

Rus olimi R.S.Pavlova “Документационное обеспечение управления. Учебное пособие для вузов (Boshqaruv uchun hujjatlar. Universitetlar uchun darslik)” ta’lim boshqaruvi ta’lim tizimining muvaffaqiyatli ishlashi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyatiga ega innovatsion ishlash mexanizmlari, hujjatlari keltirib o‘tilgan.

Vey Syuen “Метод Гарварда. Как обучают будущих лидеров в самом престижном университете мира (Garvard usuli. Kelajak liderlari universiteti)” kitob muassasada o‘quv jarayoni ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni samarali tarbiyalash va ularning individual ehtiyojlariga mos keladigan ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan. Kelajak boshqaruvchilari uchun innovatsion yondashuvlar, liderlik qobiliyatlari va ijtimoiy mas’uliyat muhim omillari sanab o‘tilgan.

Salmi Jamil, Altbah Filip, Esher Jerar “Ускоренные университеты: соединение идей и денег для достижения академического совершенства (Tezlashtirilgan universitetlar: Mukammallikka erishish uchun g‘oyalarni bog‘lash)” Ushbu kitob ta’lim tizimidagi innovatsiyalar, investitsiyalar va akademik mukammallikni ta’minlash jarayonida muhim yo‘nalishlarni ko‘rsatadi. U nafaqat universitetlar

¹ Glen Domann “The secret of childhood” (Bolalik sirlari) – asari. 17-18-betlar

rahbarlari va o'qituvchilar, balki ta'lim sohasidagi tadqiqotchilar va siyosatchilar uchun ham foydali manba hisoblanadi. Kitobning yondoshuvi ta'limni rivojlantirish uchun yangi g'oyalari va strategiyalarni taqdim etadi.

Y.Lyapunsova “Преподаватель высшего образования. Практические ситуации (Oliy ta'lim o'qituvchisi)” kitobi oliy ta'lim o'qituvchilari uchun amaliy qo'llanma sifatida muhim ahamiyatga ega. U pedagogik vaziyatlarda qanday harakat qilish, o'z qobiliyatlarini rivojlantirish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash bo'yicha foydali tavsiyalar beradi. Kitob o'qituvchilarga nafaqat nazariy, balki amaliy jihatlarida ham yordam berishga qaratilgan.

M.Polevaya, Y.Kamneva, M.Simonova “Оценка эффективности работы сотрудников и руководителей учреждений высшего образования на основе (Oliy ta'lim muassasasi rahbar va hodimlarini boshqaruvi)” salohiyatli kadrlarni tayyorlash, o'qituvchilar, ota-onalar va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, ta'lim jarayonida qo'shimcha yordam va resurslarni taqdim etadi.

L.N.Sanikova “Управление образованием. Учебное пособие для вузов (Ta'lim boshqaruvi)” kitobida ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va qiziqishlari inobatga olib, ularni rivojlantirishga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar qo'llanilishi va ijodiy fikrlash va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

Ta'lim gumanizatsiyasiga oid kitoblar ta'lim jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini, shuningdek, o'quvchilarni rivojlantirish va ularning ehtiyojlarini inobatga olishga qaratilgan yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ular o'qituvchilarga, tadqiqotchilarga va ta'lim boshqaruvchilarga muhim ma'lumotlar taqdim etadi, bu esa ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Yuqorida keltirilgan har bir kitob o'ziga xos jihatlari va amaliy tavsiyalar bilan to'ldirilgan bo'lib, ta'lim gumanizatsiyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Kitoblarda zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish, ularni gumanistik yondashuvlar bilan bog'lash usullari ko'rib chiqilgan. O'quvchilarning faol ishtirok etishlari uchun yaratilgan sharoitlar tahlil qilinadi va ta'lim jarayonida axloqiy va ma'naviy qadriyatlarini o'rganish, shuningdek, o'qituvchilarning roli va mas'uliyati yoritiladi. Interaktiv metodlar va o'qitishning yangi usullari ko'rsatilgan.

Tadqiqod metodologiyasi (Research Methodology). O'zbekistonda ta'lim gumanizatsiyasining asosiy maqsadi — o'quvchilarni nafaqat bilim berish, balki ularni har tomonlama rivojlantirish, shaxs sifatida shakllantirishdir. Bu jarayon orqali jamiyatning kelajagi — yurtning rivojlanishiga hissa qo'shish mumkin.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Kontseptsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Gumanizatsiyaning ijtimoiy aspektlarini quyidagi yo'nalishlarda ochib berishga harakat qilamiz:

- Inson qadriyatining hurmatini yuksaltirish: Gumanizatsiya jarayonida insonning shaxsiyati, fikrlashi va huquqlari ustun qo'yiladi. Ta'lim tizimi, o'quvchilarni mas'uliyatli va ijtimoiy faol fuqarolar sifatida tarbiyalashga qaratilgan.

- Ijtimoiy tenglikni ta'minlash: Ta'limda har bir shaxs uchun teng imkoniyatlarni yaratish zarur. Bu ijtimoiy ixtiloflarni kamaytirishga va kam ta'minlangan qatlamlar uchun ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi.

- Madaniyat va mulkchilikni rivojlantirish: Ta'lim jarayonida milliy madaniyat va an'analarni hurmat qilish, gumanizatsiyaning muhim qismi hisoblanadi. Bu yoshlarni o'z millatiga, tarixiga va madaniyatiga nisbatan mehr-muhabbat bilan tarbiyalaydi.

Ta'limda gumanizatsiyaning falsafiy aspektlari esa:

- Ta'lim va axloqiy qadriyatlar: Ta'lim gumanizatsiyasi orqali yoshlarni axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyatga o'rgatish zarur. Bu ta'lim oluvchiga shaxsiy rivojlanish va jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam beradi.

- Ochiqlik va hamkorlik: Ta'lim tizimida ochiq fikrlash va hamkorlik muhimdir. Bu nafaqat ta'lim muassasalari o'rtasida, balki jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida ham amalga oshirilishi kerak.

- Innovatsiyalarni joriy etish: Zamonaviy ta'lim metodlari va texnologiyalarini joriy etish, gumanizatsiya jarayonini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu o'quv jarayonini qiziqarli va samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Yangi O'zbekiston ta'lim gumanizatsiyasi yo'nalishida bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ta'lim sifatini oshirish, yangi o'quv dasturlarini joriy etish, innovatsion texnologiyalarni ta'limga kiritish va o'quvchilar uchun qiziqarli, foydali ta'lim muhitini yaratish ustida ish olib borilmoqda. Shuningdek, davlat ta'lim sohasida ijtimoiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqmoqda, bu esa har bir shaxsga sifatli ta'lim olish imkoniyatini beradi. O'tgan 7 yil davomida ta'limni rivojlantirishga jami 216 trillion so'm sarflanib, 6 mingta davlat maktabi va 3,5 mingta bog'cha rekonstruksiya qilindi va yangidan qurildi².

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan yangiliklar quyidagi asosiy yo'nalishlarda davom etmoqda:

Birinchidan, ta'lim sifatini oshirish: O'zbekiston Respublikasi ta'lim sifatini yaxshilash uchun yangi o'quv dasturlarni joriy etmoqda, o'quvchilarni baholashning yangicha (Choraklik va bob bo'yicha summativ, formativ) metodlari ishlab chiqildi. Bu dasturlar xalqaro standartlarga mos kelishi va o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Ikkinchidan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish: O'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalarni, masalan, raqamli ta'lim platformalarini (erp.uz, Khan academy, my.maktab.uz va boshqalar...), onlayn ta'lim resurslarini va interaktiv ta'lim usullarini qo'llashga katta e'tibor berilmoqda.

Uchinchidan, o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish maqsadida treninglar, seminarlar va kurslar tashkil etilmoqda. O'qituvchilarning sifatli ta'lim berishlari uchun zaruriy bilim va ko'nikmalarni olishlariga yordam berilmoqda (O'zbekiston Respublikasining barcha viloyatlari, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikalarida hamda Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi Renessans oromgohida mavsumsiz malaka oshirish tizimi joriy etilgan).

To'rtinchidan, ta'lim muassasalari infratuzilmasini yaxshilash: Maktablar, kollej va oliy ta'lim muassasalarining infratuzilmasini modernizatsiya qilish va ta'mirlash, zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash uchun investitsiyalar jalb qilinmoqda (Masalan, 2022-2026 yillar uchun ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturi doirasida 1 milliard dollar atrofida investitsiya kiritilishi rejalashtirilgan. Bu mablag'lar ta'lim muassasalarini ta'mirlash, yangi texnologiyalarni joriy etish, o'quv uskunalarini yangilash va o'qituvchilar malakasini oshirishga yo'naltiriladi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon banki va boshqa donor mamlakatlar bilan hamkorlikda qo'shimcha moliyalashtirish amalga oshirilmoqda. O'tgan 5 yilda 13 ming 500 dan ortiq kompyuter

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2024-yil 30-sentabrdagi "Ta'lim-tarbiya sohasi vakillari bilan uchrashuvi"dagi ma'ruzasidan

sinf xonalari, 200 mingta zamonaviy kompyuterlar bilan ta'minlandi. Kelgusi yilda yana 2 mingdan ziyod kompyuter sinflari yangilanadi, bunga byudjetdan 400 milliard so'm beriladi. Bu ham O'zbekiston ta'lim infratuzilmasini yanada mustahkamlashga yordam beradi³.

Beshinchidan, Maktabgacha ta'limni rivojlantirish: Maktabgacha ta'lim muassasalarini kengaytirish va sifatini oshirish uchun yangi dasturlar hamda loyihalar ishlab chiqilmoqda. Bu bolalarning erta rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi (Xususiy bog'chalar kabi 6 ming 800 ta davlat bog'chalarida ham davomat, to'lovlar, oziq-ovqat xarajatlarini shakllantirish to'liq raqamlashtiriladi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, shu tariqa yiliga 10 % mablag'lar tejiladi⁴).

Oltinchidan, ochiq ta'lim tizimi: Ochiq ta'lim tizimining joriy etilishi orqali talabalar va o'quvchilar uchun qo'shimcha o'quv materiallariga kirish imkoniyati yaratilmoqda (natlib.uz va boshqalar...).

Yettinchidan, ijtimoiy mas'uliyat: O'zbekiston ta'lim tizimida ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlarni kuchaytirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarni jamiyatga foydali fuqarolar sifatida tarbiyalashga urg'u berilmoqda.

Sakkizinchidan, xalqaro hamkorlik: O'zbekiston ta'lim tizimi xalqaro ta'lim tashkilotlari va muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirmoqda (Masalan, UNESCO tashkiloti bilan O'zbekiston ta'lim sohasida sifatni oshirish va ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha UNESCO bilan hamkorlik qilmoqda. Jahon banki: Ta'lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish va sifatini oshirish uchun moliyaviy yordam hamda maslahatlar berish orqali hamkorlikda ishlamoqda. Yevropa ittifoqi: Ta'lim va yoshlar sohasida rivojlanish uchun turli dasturlar va loyihalarda hamkorlik olib bormoqda. Dunyo ta'lim tashkiloti (World education organization): Ta'lim sifatini oshirish va ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilishda yordam beruvchi loyiha hamda dasturlarda ishtirok etmoqda. Osiyo taraqqiyot banki: Ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish va yangi ta'lim usullarini joriy etish bo'yicha loyihalarda yordam bermoqda. UNICEF – Birlashgan millatlar tashkilotining Bolalar jamg'armasi): Maktabgacha ta'lim va bolalar ta'limida ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalarda ishtirok etmoqda. Dunyo ta'limi maktablari tashkiloti (Global schools forum): Ta'limda innovatsiyalarni joriy etish va tajriba almashish bo'yicha hamkorlik qilmoqda). Bularning barchasi tajriba almashish, ta'limda gumanizm g'oyasining nechog'lik muhim tendensiya ekanligini va ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Bu yangiliklar O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirishga va kelajak avlodni zamonaviy talablarga mos ravishda tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Takliflar ta'lim gumanizatsiyasini yanada samarali va insoniy qadriyatlarga mos keladigan tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa o'quvchilarni yaxshiroq tayyorlash va ularning shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni shaxs sifatida hurmat qilish, ularning ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish va o'quvchilar fikrini eshitish va ularni jarayonlarga jalb etish lozim. Mavzularni amaliyot bilan bog'lash, guruhli va jamoaviy ishlashni rag'batlantirish. Ta'lim jarayoniga ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni kiritish. O'quvchilarda insoniy qadriyatlar, murosasizlik va jamiyatga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantirish.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Onlayn platformalar, multimedia resurslar va o'quv dasturlarini joriy etish. O'qituvchilar uchun doimiy malaka oshirish dasturlarini tashkil etish. Ularning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va yangi pedagogik yondashuvlar bilan tanishtirish. Ota-onalar va jamiyat bilan ta'lim jarayonida hamkorlik qilish. Ta'lim muassasalari va ota-onalar o'rtasida kommunikatsiyani yaxshilash. Har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olish. Ta'lim jarayonining samaradorligini muntazam ravishda baholash. O'quvchilarning natijalarini tahlil qilish va jarayonni yaxshilash uchun zarur o'zgarishlarni amalga oshirish.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2024-yil 30-sentabrdagi "Ta'lim-tarbiya sohasi vakillari bilan uchrashuvi"dagi ma'ruzasidan

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2024-yil 30-sentabrdagi "Ta'lim-tarbiya sohasi vakillari bilan uchrashuvi"dagi ma'ruzasidan

Ta'lim dasturlarida zamonaviy fanlarni va fanlararo yondashuvlarni qo'llash. Bu o'quvchilarga kompleks masalalarni hal qilishda yordam beradi. Ta'lim gumanizatsiyasi tamoyillarini o'qituvchilar va ta'lim boshqaruvchilariga tushuntirish, bu tamoyillarni ta'lim tizimiga joriy etish.

Ushbu takliflar ta'lim gumanizatsiyasini yanada samarali va insoniy qadriyatlarga mos keladigan tarzda rivojlantirishga yordam beradi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim gumanizatsiyasi jarayoni jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Insoniy qadriyatlarni, axloqiy mas'uliyatni va madaniy merosni yuksaltirishga qaratilgan harakatlar, kelajak avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim gumanizatsiyasi orqali O'zbekiston, barqaror va farovon jamiyat qurishda o'zining yangi yo'nalishlarini belgilab olmoqda. Bu jarayon har bir insonning kelajagini belgilab beradi va albatta ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2024-yil 30-sentabrdagi "Ta'lim-tarbiya sohasi vakillari bilan uchrashuvi"dagi ma'ruzasidan.
2. Glen Domann "The secret of childhood" 2010 New York. (Bolalik sirlari) – asari, 17-18-betlar
3. Masaru Ibuka "Genius of the Mind: The creative life of thr child" (Aql dahosi: bolaning ijodiy hayoti) – asari, elektron shakli 47-bet
4. O'zbekiston respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida - T.:2019 y.
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida - O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori 391-sonli qarori T.:2019 y
6. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni, O'RQ-595 4. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta'lim - tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. T., 2020 y